



STANDARTLASHTIRISH VA TEXNIK JIHATDAN
TARTIBGA SOLISH SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ
KENGASHI

KASBIY STANDART ETALONLARNI SAQLOVCHI



“Etalonlarni saqllovchi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Etalonlarni saqllovchi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0076



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standartga tegishli "Etalonlarni saqllovchi" kasbi uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

birlamchi etalon – bu o'lchov birliklarining eng yuqori darajadagi anikligi va ishonchliligiga eta bo'lgan etalondir. U milliy yoki xalqaro darajada qabul qilingan bo'lib, boshqa etalonlarga asos bo'ladi.

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

etalon – muayyan kattalik birligining o'lchamini boshqa o'lchash vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o‘z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro‘yxat;

kattalik birliklarining etalonlari – Etalonlar orqali qayta hosil qilinadigan kattalik birliklari xalqaro birliklar tizimining birliklariga qadar metrologik kuzatiluvchanlikni ta‘minlashi kerak;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

metrolog – bu o‘lchashlar va ularning anikligi, ishonchliligi bilan bog‘lik bo‘lgan faolliklarni tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va nazorat etuvchi mutaxassis;

metrologik ko‘rastkichlar – o‘lchov vositalari, usullar va texnikalarning anikligi, ishonchliligi va standartlarga mosligini baholash uchun ishlatiladigan parametrlar. Ular orqali o‘lchovlarning anikligi va sifati nazorat qilinadi;

metrologik xususiyatlar – o‘lchash vositalari, usullar va tarmoklarning ishlashi va natijalarning ishonchliligini belgilovchi parametrlar. Ular o‘lchovlarning anikligi, takrorlana olishi va boshqa muxim jihatlarini ko‘rsatadi;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

o‘lchash vositalari – o‘lchashlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatlarga ega bo‘lgan texnika vositasi;

o‘lchash vositalarini kalibrlash – berilgan sharoitlarda o‘lchash vositasi yordamida olingan kattalik qiymati va etalon bilan qayta tiklanadigan tegishli kattalik qiymati o‘rtasidagi nisbatni aniqlash orqali o‘lchash vositasining metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o‘lchash vositalarini qiyoslash – o‘lchash vositalarining belgilab qo‘yilgan metrologik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishi – o‘lchashlarning natijalari qonuniylashtirilgan birliklarda ifodalangan va o‘lchashlarning aniqlik ko‘rsatkichlari ma‘lum ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan holati;

texnik sinovlar – bu mahsulot, material, qurilma yoki texnologiyaning ishlashi, ishonchliligi va standartlarga mosligini tekshirish uchun o‘tkaziladigan tajribalar;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (IFUT-2) VM-275-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-614-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 528-son qarori;

O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 15-iyuldagi "Texnik jixatdan tartibga solish to'g'risida" O'RQ-819-son qonuni;

O'zMSst (Milliy standartlar) etalonlarni qiyoslash va kalibrovka qilish uslubiyotlari;

4. Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

T/r – Tartib raqami

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

I. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Etalonlarni saqllovchi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	O'zbekiston Respublikasi etalon bazasini rivojlantirish, davlat metrologiya xizmati laboratoriyalarini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini metrologik qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	M seksiya; 71 Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat; 71.2 Texnik sinovlar va tahlillar; 71.20 Texnik sinovlar va tahlillar; 71.20.0 Texnik sinovlar va tahlillar.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	O'lchash vositalari va sinov uskunalarini qiyoslashni amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		21415001 Etalonlarni saqllovchi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	21415001 Etalonlarni saqlovchi	A1.6	Etalon yordamida muayyan kattalik birligining o'lchamini boshqa o'lchash vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash	A1.01.6	O'lchash natijasining metrologik kuzatiluvchanligini (xalqaro birliklar tizimining birliklariga qadar) ta'minlash uchun etalon yordamida quyi turuvchi o'lchash vositalarini metrologik tekshiruvni amalga oshirish
				A1.02.6	Milliy etalonlarni saqlash va qo'llash bo'yicha tasdiqlangan qoidalarga muvofiq va qo'llanish shartlariga rioya etilishini ta'minlash
		A2.6	Milliy etalonlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish	A2.01.6	Milliy etalonlarni yaratish (istiqbolli dastur yoki ehtiyojga muvofiq), tasdiqlash, saqlash va ishchi holatda saqlab turish qoidalariga muvofiq ishlarni amalga oshirish
				A2.02.6	Etalonlarni va eng yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini saqlab turish hamda ularni xalqaro darajada solishtirish, shuningdek kattalik birliklarini saqlash va uzatish bo'yicha ishlarni bajarish
		A3.6	Sifat menejment tizimi protseduralariga yoki belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish	A3.01.6	Barcha protsedura hujjatlarni tahlil qilish, metrologiya tekshiruvi (qiyoslash yoki kalibrlash) usullarini takomillashtirish, qo'llash bo'yicha ishlarni amalga oshirish
				A3.02.6	Sifat tizimining protseduralari yoki belgilangan talablariga muvofiq laboratoriyani kompetentligini baholash (akkreditatsiya jarayonida) muvofiqlikni baholash obyekti sifatida ishlarni amalga oshirish

II. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Etalonlarni saqllovchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	21415	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Metrologiya sohasida 3 yildan kam bo'lmagan ish tajribasiga ega bo'lish	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lishi; Ish joyidagi xavfsizlik qoidalari bo'yicha instruktaj (atrof-muxit va mehnat himoyasi). Ishga munosabat va xulq-atvor: Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalarga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Metrologiya bo'yicha texnik

Mehnat funksiyalarining tasnifi	
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari
<p>A1.6 - Etalon yordamida muayyan kattalik birligining o'lchamini boshqa o'lchash vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash</p>	<p>O'qitish natijalari</p> <p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Texnik xizmat ko'rsatish va qo'llash qoidalari, tasdiqlangan dasturlari va ish rejalariga hamda o'zlarining rasmiy vazifalariga muvofiq o'lchov birligining davlat birlamchi etalonini saqlash va qo'llash bilan bog'liq ishlarni bajarish</p> <p>2. Metrologiya bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etish</p> <p>3. O'lchash birligining davlat birlamchi etalonini saqlash va qo'llashni amalga oshiruvchi davlat ilmiy metrologiya instituti direksiyasiga (ma'muriyatiga) murojaat qilish, kattalik birligining mazmuni, qo'llanilishi, taqqoslanishi va etalonni takomillashtirish masalalari bo'yicha, shuningdek, davlat birlamchi etalonining olim-saqlovchisining vazifalarini to'g'ri bajarish uchun shart-sharoitlar yaratish</p> <p>4. Ushbu o'lchov turi bo'yicha metrologlarni tayyorlashda, shu jumladan ma'ruza qilish, mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish orqali ishtirok etish</p> <p>5. O'lchashlar bir xilligini ta'minlash, tegishli o'lchov sohasida metrologiyani rivojlantirish muammolari bo'yicha majlislar, konferensiyalar, seminarlar va hakazolarda ishtirok etish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Etalon va ishchi o'lchash vositalaridan foydalanib metrologik tekshirish</p> <p>O'lchash natijalarining metrologik kuzatiluvchanlik zanjirini (SI birliklariga qadar) ta'minlash</p> <p>Metrologik tekshiruv natijalarini baholash va aniqlik ko'rsatkichlarini hisoblash</p> <p>metrologik tekshiruv metodikalarini amalda qo'llash</p> <p>O'lchash noaniqligini aniqlash va baholash</p> <p>Metrologik tekshiruv natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi birliklarning yagonaligini ta'minlash tizimi</p> <p>Standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish, davlat nazorati va tekshiruvi masalalariga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlari</p> <p>O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunlari</p>
	A1.01.6 - O'lchash natijasining metrologik kuzatiluvchanligini (xalqaro birliklar tizimining birliklariga qadar) ta'minlash uchun etalon yordamida quyi turuvchi o'lchash vositalarini metrologik tekshiruvni amalga oshirish

		Davlat tijorat siri ahamiyatida bo'lgan ma'lumotlarni himoyalash usullari
		Mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'inga qarshi himoya talablari
	A1.02.6 - Milliy etalonlarni saqlash va qo'llash bo'yicha tasdiqlangan qoidalarga muvofiq va qo'llanish shartlariga rioya etilishini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Kattalik birligi davlat birlamchi etalonini tadqiq qilish va uning holati hamda kattalik birligi etalonidan foydalangan holda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik hisobotlar tayyorlash
		2. Saqlanayotgan etalonini boshqa mamlakatlar etalonlari bilan solishtirish va solishtirish natijalarini tahlil qilish ishlarini tashkil etish va ishtirok etishni ta'minlash
		3. Boshqa mamlakatlar tomonidan etalonlar asosida olib boriladigan tegishli ishlar haqida ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish hamda bu ishlar tahlili bo'yicha axborot tayyorlash
		4. Etalonnin o'rganish va attestatsiyadan o'tkazishda ishtirok etish va etalon bilan bajariladigan ishlar bo'yicha yillik hisobotlarni tayyorlash, etalonnin takomillashtirish va ularni saqlash va foydalanish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflarni tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Milliy etalonlarni saqlash va qo'llash bo'yicha tasdiqlangan qoidalarga muvofiq ularning butligini, barqarorligini va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash
		Etalonlardan foydalanish shartlariga rioya etilishini nazorat qilish hamda aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha belgilangan tartibda choralar ko'rish
		O'lchash natijalarini olish, talqin qilish va tahlil qilish
		Bilimlar:
		Metrologiya asoslari, metrologiya, standartlashtirish sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish qonunlari
		Standartlashtirish va ishlab chiqarish metrologik ta'minot qoidalari
		O'zbekiston Respublikasi birliklarining yagonaligini ta'minlash tizimi hujjatlari
	Mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'inga qarshi himoya talablari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilish uchun turli xil usullardan foydalanish
		2. Ishning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash
		3. Ishni samarali tashkil etish usullarini bilish
		4. Bo'limni boshqarish uchun zarur bilimga ega bo'lish

A2.6 - Milliy etalonlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish	A2.01.6 - Milliy etalonlarni yaratish (istiqbolli dastur yoki ehtiyojga muvofiq), tasdiqlash, saqlash va ishchi holatda saqlab turish qoidalariga muvofiq ishlarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'lchovlarning qat'iy turi bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy boshqarishni amalga oshirish
		2. Ilmiy-texnik dasturlarning alohida vazifalarini bajarish. Zarur ilmiy-texnik standartni ishlab chiqish, takomillashtirish va ta'minlashga qaratilgan fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga takliflar ishlab chiqadi va taqdim etish
		3. Davlat standartini boshqa mamlakatlarning milliy standartlari va xalqaro standartlar bilan taqqoslashni amalga oshirish va taqqoslashlar natijalarini tahlil qilish
		4. Standartni saqlash va foydalanish qoidalariga muvofiq standartlarni saqlash va ulardan foydalanish shartlariga rioya etilishini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Texnik va tashkiliy-ma'muriy hujjatlarning tarkibini tahlil qilish
		Laboratoriya ishini rejalashtirish va nazorat qilish
		Standart bo'yicha tekshirish va kalibrlash
		Bilimlar:
		Laboratoriya ishini rejalashtirish va faoliyatini nazorat qilishni tartibi
		Etalonlarni saqlash talablari
		Metrologiya asoslari va o'lchov birliklari tizimi
		Etalonlarning turlari, tuzilishi va qo'llanish sohasi
	Mehnat xavfsizligi va sanoat sanitariyasi talablari	
	Etalonlarni kalibrlash va verifikatsiya qilish tartibi	
	Ishni rejalashtirish va vazifalarning bajarilishini nazorat qilish tartibi	
	A2.02.6 - Etalonlarni va eng yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini saqlab turish hamda ularni xalqaro darajada solishtirish, shuningdek kattalik birliklarini saqlash va uzatish bo'yicha ishlarni bajarish	Mehnat harakatlari:
	1. Milliy metrologiya institutlari tomonidan berilgan miqdorlar, kalibrlash va o'lchash sertifikatlarining milliy standartlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi Shartnoma doirasida ushbu o'lchov turida kalibrlash va o'lchash imkoniyatlarini tasdiqlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish	
	2. Boshqa mamlakatlarning metrologiya muassasalarida olib boriladigan o'lchovlarning ushbu turi bo'yicha o'lchov birliklari standartlari va ularning tadqiqot natijalari yordamida ishlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish hamda bu ishlarni tahlil qilgan holda taqriz tuzish	
Ko'nikmalar:		
Texnik va metrologik hujjatlarni yuritish		
Etalonlar va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini to'g'ri saqlash		
O'lchash vositalarini tekshirish, kalibrlash		
O'lchov natijalarini tahlil qilish		
Laboratoriya jihozlaridan foydalanish		

		Xalqaro solishtirishlarda o'lchov natijalarini tayyorlash va rasmiylashtirish
		O'lchov noaniqligini hisoblash va baholash
		Mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Laboratoriya ishini rejalashtirish
		Kalibrlash, verifikatsiya va xalqaro solishtirish tartibi
		Etalonlarni saqlash va ekspluatatsiya qilish talablari
	Metrologiya asoslari va o'lchov birliklari tizimi	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilish uchun turli xil usullardan foydalanish
		2. Ishning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash
3. Ishni samarali tashkil etish usullarini bilish		
4. Laboratoriya uskunalarda ishlashda mas'uliyatli bo'lish		
A3.6 - Sifat menejment tizimi protseduralariga yoki belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish	A3.01.6 - Barcha protsedura hujjatlarni tahlil qilish, metrologiya tekshiruv (qiyoslash yoki kalibrlash) usullarini takomillashtirish, qo'llash bo'yicha ishlarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Amaldagi protsedura hujjatlarini yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilish
		2. O'lchash jarayonlaridagi og'ishlar va noaniqlik manbalarini baholash
		3. Metrologik tekshiruv usullarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		4. Yangilangan yoki optimallashtirilgan metodikalarni amaliyotga joriy etish
		5. Metrologik protokol va hisobotlarni rasmiylashtirish
		6. Etalonlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha texnik choralarni nazorat qilish
		7. Ichki metrologik auditlarda ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Protsedura hujjatlarini tahlil qilish va takomillashtirish
		Noaniqliklarni hisoblash va hujjatlashtirish
		Metrologik hisobotlarni tayyorlash
		Aniqlikni oshirish bo'yicha texnik yechimlar taklif qilish
		Bilimlar:
		Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari
		Metrologik hisobot va ekspert xulosalarini rasmiylashtirish qoidalari
		Qiyoslash va kalibrlash metodikalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish prinsiplari
		Subpudratchilarni baholash va sertifikatlash
		Metrologik risklarni aniqlash va boshqarish yondashuvlari
Protsedura hujjatlarini ekspert tahlil qilish metodologiyasi		

	A3.02.6 - Sifat tizimining protseduralari yoki belgilangan talablariga muvofiq laboratoriyani kompetentligini baholash (akkreditatsiya jarayonida) muvofqlikni baholash obyekti sifatida ishlarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Laboratoriyaning faoliyatini sifat menejmenti tizimi protseduralari va belgilangan talablar (ISO/IEC 17025 va tegishli me'yoriy hujjatlar)ga muvofiqligini tahlil qilish
		2. Akkreditatsiya doirasida muvofqlikni baholash obyekti sifatida bajariladigan ishlar va xizmatlar ro'yxatini aniqlash
		3. Laboratoriyaning texnik kompetentligini (xodimlar malakasi, uskunalar, etalonlar, o'lchash metodlari) baholash
		4. O'lchash va sinov natijalarining ishonchliligi, kuzatiluvchanligi hamda noaniqligini ta'minlash holatini tekshirish
		5. Sifat tizimi hujjatlari, protseduralar va yozuvlarning to'liqligi hamda amalda qo'llanilishini baholash
		6. Aniqlangan nomuvofqliklarni qayd etish, ularni bartaraf etish bo'yicha tuzatish va oldini oluvchi choralarni belgilash
		7. Baholash natijalarini belgilangan shaklda rasmiylashtirish va akkreditatsiya organiga taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Sifat menejmenti tizimi protseduralari va belgilangan talablar asosida laboratoriyaning texnik va tashkiliy kompetentligini baholash
		Akkreditatsiya jarayonida muvofqlikni baholash obyekti sifatida bajariladigan ishlarni aniqlash
		Laboratoriya faoliyatining me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tahlil qilish
		Aniqlangan nomuvofqliklarni baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni belgilash hamda baholash natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish
		Bilimlar:
		Sifat menejmenti tizimi va laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha milliy hamda xalqaro talablar
		Laboratoriya kompetentligini baholash mezonlari va tartiblari
		Muvofqlikni baholash jarayonining bosqichlari, texnik va tashkiliy talablar
Metrologik kuzatiluvchanlik va o'lchash noaniqligi asoslari		
Baholash natijalarini rasmiylashtirishga doir me'yoriy hujjatlar		
Mas'uliyat mustaqillik:	va	1. Ishni samarali tashkil etish usullari 2. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilish uchun turli xil usullardan foydalanish

<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>	<p>Etalonlarning ishlash prinsiplarini yaxshi tushunish Etalonlarni ishga tushirish va ularni texnik xizmat ko'rsatish standartlariga muvofiq tekshirish; O'lchashlarni bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va materiallardan samarali foydalanish; Etalonlarni o'rnatish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish uchun standart va texnik xo'jjatlarga rioya qilish; O'lchashlarni bajarish jarayonida texnologik zaruriyatlarga asosan ishni tashkil qilish va kuzatish; Xavfsizlik va ishchi shartlarini hisobga olgan holda, o'lchashlarni to'g'ri amalga oshirish; O'lchash jarayonini muvofiqlashtirish va ishning samaraliligi, sifati va muddatini ta'minlash; Texnik talablar: Texnik jihozlarni saqlash joyida harorat, namlik, chang darajasi, vibratsiya va boshqa omillar belgilangan normativlardan oshmasligi kerak (masalan, harorat $+20^{\circ}\text{C} \pm 2^{\circ}\text{C}$); Etalonlar korroziyadan, mexanik zarbalardan, elektromagnit ta'sirlardan himoyalangan bo'lishi shart; Har bir etalon o'ziga tegishli pasporti, kalibrovka sertifikatini va unikal identifikatsion belgiga ega bo'lishi kerak; Etalonlar o'zining tasdiqlangan aniqlik ko'rsatkichlarini saqlab qolishi zarur; Saqlovchi etalonlar belgilangan muddatlarda tekshirilishi va (zarur bo'lsa) qayta kalibrovkadan o'tkazilishi shart; Texnologik talablar: Etalonlar maxsus stendlarda, qutilarda yoki vitrinalarda belgilangan holatda saqlanishi kerak; Faqat malakali va maxsus ruxsatga ega xodimlar etalonlardan foydalanishi mumkin; Etalonlar muntazam tozalanishi, yog'lanishi yoki boshqa texnik xizmatlardan o'tishi kerak; Har bir etalon bo'yicha foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish jurnali yuritiladi; Barcha operatsiyalar milliy yoki xalqaro metrologik standartlarga mos tarzda bajarilishi kerak.</p>
---	--

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 10-fevraldagi 2-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0045 son xulosa 18.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0 - talqin, 18.02.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	17.02.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi

(tashkilot nomi)

Direktor

Jumanazarov A.

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Inson resurslarini rivojlantirish vaboshqarish bo'limi bosh mutaxassisi	Umarova Dilnoza Tursunovna
2	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi kotibi	Matkarimov Sur'atbek Bekturdievich
3	O'zbekiston Standartlar institutixodimlar bo'limi boshlig'i	Mixlieva Nargiza Toyirovna
4	"Akkreditatsiya markazi" DM bo'lim boshlig'i	Asqarov Azizjon Xasanovich
5	O'zbekiston milliy metrologiya instituti DM bosh mutaxassisi	To'raqulov Anvarali N'emat o'g'li
6	Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i	Tagayeva Ulyana Jumanazarovna
7	"UzTest" DM bo'lim boshlig'i	Buzruksanova Gulnoza Anvardjanovna



**STANDARTLASHTIRISH VA TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH
SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART
ETALONLARNI SAQLOVCHI**